



JEYMS KLIR QALAMIGA MANSUB "ATOM ODATLAR" ASARINING INGLIZ  
TILIDAN O'ZBEK TILIGA LEKSIK TRANSFORMATSIYA TARJIMA TAHLILI

Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Jeyms Klir qalamiga mansub "Atom odatlar" asarining ingliz va o'zbek tili tarjimasidagi leksik tahlilga e'tibor qaratilgan. Maqolada tahlil uchun olingan tarjima turi va o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Tarjima jarayonining muhim jihatlaridan biri asar haqida umumiy ma'lumotlar to'plash va ular bilan tanishib chiqish, shuning uchun quyidagi maqolada asar haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** til, ma'no, leksik transformatsiya, leksik transformatsiya turlari, so'zma-so'z transkripsiya, tarjima jarayoni, uyushiq bo'lak tushunchasi, neologizmlar.

**KIRISH:** Dunyoda tillar ko'p. Shular qatori shu tillarning so'z boyligi ham beqiyosdir. Har bir xalq o'z davrida so'z mulkining sultonlariga ega bo'lganlar. Xususan, o'zbek xalqida buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy, rus xalqida A.S. Pushkin, ingliz xalqida Shekspir, tatarlarda Abdulla To'qay va boshqalar. Bu buyuk insonlarning asarlarini o'qir ekanmiz so'zlarni naqadar o'z o'rnida ishlatganini hamda badiiy, jozibador, bo'yoqdor so'zlar topa olish san'atiga ega bo'lganliklarini ko'rib tan bermaslikning iloji yo'q albatta. Chet el yozuvchi, shoirlarining nodir va noyob asarlarini tarjima qilishda dastlab, ular foydalangan so'zlarning ma'nosini bilish va aslida nima demoqchi bo'layotganini qalb hamda tafakkurimiz orqali seza olishimiz kerak.

#### ADABIYOTLAR TARIXI VA METODOLOGIYA

Endi esa sizlar bilan 2022-yilda eng mashhur bo'lgan kitoblardan biri- Atom odatlar kitobi tarjimasini haqida gaplashsak. Asar Jeyms Klir tomonidan yozilgan. Jeyms Klir - amerikalik yozuvchi, tadbirkor va shuningdek, odatlar, qaror qabul qilish va uzluksiz rivojlanish kabi mavzularga yo'nalgan notiq. U 1986-yil 22-yanvarda AQSHning Gamilton, Ohio shtatida tug'ilgan. Asar Asaxiy book jamoasi tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. Muallif yomon odatlardan butkul halos bo'lib, faqat yaxshi odatlar bilan qolishga yordam beradigan ushbu qo'llanmani yozishda biologiya, psixologiya va nevrologiyaning eng oxirgi kashfiyotlariga tayangan. Chempionlikka intilayotgan jamoami, sohada inqilob qilmoqchi bo'lgan kompaniyami yoki o'z oldiga shunchaki chekishni tashlash, ozish, stressni kamaytirish kabi maqsadlarni qo'yganlarmi, kim bo'lishingizdan qat'i nazar, "Atom odatlar" odatlaringizni o'zgartirishda zarur bo'lgan vosita va strategiyani ko'rsatadi. Bu esa nafaqat odatlaringizni, balki taraqqiyot va muvaffaqiyat haqidagi qarashlaringizni ham islox qiladi. Bu asarda juda ham ko'p leksik transformatsiyaga yuzlanilgan. Leksik transformatsiyada ot so'z turkumi muhim ahamiyatga ega. Leksik transformatsiyani o'rganish quyidagi bisqichlarni o'z ichiga oladi: transkripsiya (shakl) yo'li, ta'riflash yo'li, so'zma-so'z, aniqlashtirish, o'ringa o'rin, umumlashtirish, qarshilantirish, o'rin to'ldirish, va mantiqiy rivijlanish yo'llari. Endi e'tiborimizni asardagi ingliz va o'zbek tili o'rtasida vujudga kelgan leksik transformatsiya tahliliga qaratsak: "What is your mom's



name? “Uh. Um.” I stalled. Ten seconds passed. “Patti”, I said casually, ignoring the fact that it had taken me ten seconds to remember my own mother’s name.(9-page) Asar tarjimasida: - Onangizning ismi nima?- Xaligi...- deya o’ylanib qoldim. Oradan 10 soniya o’tdi. Keyin esa o’z onamning ismini eslash uchun 10 soniya ketganiga parvo qilmagandek, “Patti” deb javob qaytardim. Tahlil jarayoniga keladigan bo’lsak bu yerda so’zma-so’z transkripsiya usulidan (Verbatim transcription) dan foydalanilgan. So’zma-so’z transkripsiya usulida turli xil “ah”, “um”, “uh” kabi pauzalardan foydalaniladi. Ushbu turdagi transformatsiya bu yerda uh, um tovushlari orqali ifodalangan. Qisqa qilib aytganda bu jarayon leksik transformatsiya tarkibiga kiradi.

In 1993, a bank in Abbotsford, Canada, hired a twenty-three year old **stockbroker** named Trent Dyrsmid.(171-page)Tarjima jarayonida bu gap quyidagicha beriladi:1993 yilda Kanadaning Abbotsford shahridagi bank 23 yoshli birja makleri Trent Dyrsmidni ishga qabul qildi. Ushbu gapda yangi so’z qo’llanilgan, ya’ni neologizmlar.(stockbroker- birja makleri) bu jarayon ham leksik transformatsiyada o’z isbotini topgan. When changing your habits means challenging the tribe, change is **unattractive**. When changing your habits means fitting in with the tribe, change is very **attractive**. (114-page). Tarjimasida:Odatlarimizni o’zgartirish jamoa fikriga qarshi chiqishni anglatadi, u yoqimsiz bo’ladi. U jamoaga qo’shilishga xizmat qilganda esa, aksincha, juda jozibali bo’ladi. Bu yerda antonimik tarjimadan foydalanilgan. Bu turdagi tarjima ham leksik transformatsiyaga yaqqol misol bo’la oladi.

The kids would be home-schooled, a rarity in Hungary at the time.(106-page)Tarjimasida: U farzandlariga uyda ta’lim berishga qaror qildi. Uy ta’limi ingliz tilida fraza ko’rinishida ifodalangan bo’lsa, o’zbek tilida u shaklini yo’qotadi, va oddiy so’z ko’rinishida ifodalanadi.

Habits like **exercise, meditation, journaling, and cooking** are reasonable for a day or two and then become a hassle. (32-page). Tarjimasida: Sport bilan shug’ullanish, meditatsiya, kundalik tutish ,o’z qo’li bilan ovqat pishirish kabi odatlar dastlab osondek ko’rinsa ham tez orada og’ir yumushdek tuyula boshlaydi. Quyidagi keltirilgan gapda uyushiq bo’laklardan keng foydalanilgan. Uyushiq bo’lakli gaplar bir xil savolga javob beradigan va gapda bir xil sintaktik vazifani bajaradigan so’zlarni bildiradi. Biz ularni hisoblash ohangi orqali topishimiz mumkin. Ko’rib turganingizdek, bu parcha ham leksik transformatsiya turiga kiradi.

Finally, a goal-oriented mind-set can create a “yo-yo” effect.(30-page)Tarjimasida: Nihoyat, maqsadga yo’nalgan fikrlash tarzi motivatsiyani kamaytirib yuborishi ham mumkin. Tarjimada xatolik bor. Tarjimon bu jumlaning tarjima qilar ekan, “yo-yo” effekti so’zidan foydalanmagan. Leksik transformatsiya usulida esa, umumiy nishonga olish ma’nosiga yuzlangan.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, tarjima odatda oddiy so’zlar yig’indisi sifatida ko’rinishi mumkin. Biroq, uning zamirida o’quvchi uchun bir qarashda kishi anglashi qiyin bo’lgan murakkab jarayon yotadi. Qolaversa, tarjimonni ko’proq o’zi ustida ishlash, qayta-qayta tahlil qilib, so’zning nozik jihatlarini taqdim etishi uchun leksik, grammatik va stilistik bo’yoqdorlik bilan bog’liq muammolarni, yanada chuqurroq



o'rganishga undaydi. Buning uchun tarjimon, biz yuqorida sanab o'tgan tarjima muammolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

#### REFERENCES:

1. Jeyms Klir "Atom odatlar" asari
2. Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Web of Scholar*, 5(4), 23-27.
3. Ачилов, О. (2022). INGLIZ VA O ZBEK TILLARIDAGI BADIY MATNLARDA ILGARI SURISH VOSITALARINING KOGNITIVPRAGMATIK XUSUSIYATLARI. МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ УЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ.
4. Oybek Rustamovich Achilov (2022). COMPARATIVE STUDYING MODEL OF FOREGROUNDING IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXT. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 714-718.
5. Orifjonava, L. T. K., Turganbayeva, S. T. K., & Achilov, O. R. (2022). THE MAIN NOTION OF FOREGROUNDING AND ITS INTERPRETATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 548-551.
6. Muxiddinov, O. N. U., Nabiev, S. M. U., & Achilov, O. R. (2022). CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES IS ONE OF THE EXPRESSIVE MEANS OF FOREGROUNDING. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 568-571.
7. Ravshanov, N. A. U., Muydinov, K. M. U., & Achilov, O. R. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN MIRMUXSIN'S NOVEL "MEMOR" AND K. MANSFIELDS "A CUP OF TEA". *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 9-12.
8. Hamro Qizi Bozorboyeva Durдона, Alibek Zokir O'G'Li Tajimatov, Oybek Rustamovich Achilov, & Iroda Izatullaevna Ismatullaeva (2022). TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR VA TEXNIK MATNLAR TARJIMASIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR. *Academic research in educational sciences*, 3 (Special Issue 2), 99-105.
9. Iroda Izatullaevna Ismatullaeva, Liliya Yurevna Filimonova, & Achilov Oybek Rustamovich (2022). SOCIOLINGUISTICS AND ITS DEVELOPMENT AS AN INDEPENDENT SCIENCE. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 621-628.
10. Tohirov, G. T. U., Xudoyberdiyev, S. I. O., & Achilov, O. R. (2022). THE BASIC TYPES OF FOREGROUNDING AND ITS FUNCTIONS. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 557-561.
11. Tayjanov, A. S. O., & Shamuratov, S. D. O. (2022). EVALUATING CHARACTERISTIC FUNCTION OF CONVERGENCE IN LITERARY TEXT. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 577-581.
12. Samandarov, S. U. O., Ortiqov, M. I. O., & Achilov, O. R. (2022). FOREGROUNDING AS A LITERARY DEVICE. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 538-541.



13. Khakimnazarov, A. K. U., Namozov, A. O. U., & Achilov, O. R. (2022). COUPLING AS A STYLISTIC DEVICE IN UZBEK AND IN ENGLISH POEM. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 587-590.
14. Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Web of Scholar*, 5(4), 23-27.
15. Химматов, А., Мансуров, А. Р. У., & Ачилов, О. Р. (2022). ИСТОЧНИКИ И МЕТОДЫ ОБОГАЩЕНИЯ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 43-46.
16. Tohirova, J., Sagidullayeva, M., & Rustamovich, A. O. (2022). VATAN SEVGISI-IYMON BELGISI. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 132-136.
17. Жаксыбаева, Б. М. К., Алиева, Г. Т. К., & Ачилов, О. Р. (2022). ТАРЖИМА СОХАСИГА ХОС БЎЛГАН МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 2), 53-61.
18. Achilov, O. (2023). O.MUXTORNING "KO'ZGUDAGI ODAM" VA O. WAYLDNING "DORIAN GREYNING PORTRETI" ASARLARI QIYOSIY TAHLILI VA ILGARI SURISH VOSTILARINING ASARDA AKS ETISHI, O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7982>
19. Achilov, O. (2023). FOREGROUNDING AND INTERPRETATION. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7984>
20. Achilov, O. (2023). BADIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN TRANSFORMATSIYA VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7978>
21. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH - LISONIY HODISA SIFATIDA. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7986>
22. Achilov, O. (2023). ILGARI SURISH VOSITALARINING UMUMIY VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, KOGNITIV-SEMANTIK ASPEKTI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7980>
23. Achilov, O. (2023). TARJIMA JARAYONIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNING TURLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7977>
24. Achilov, O. (2023). JORJ ORUELL QALAMIGA MANSUB "1984" ASARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA TAHLILI, MORFOLOGIK VA LEKSIK FARQLIKLAR. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7985>
25. Achilov, O. (2023). ANATOMY OF LANGUAGE AND THEORETICAL ASSUMPTIONS OF COGNITIVE SCIENCE, COMPARATIVE ANALYZES. *Журнал*



*иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от  
<https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7983>

26. Achilov, O. (2023). HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA ILGARI SURISH HODISASINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5). извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/7981>